

NATRIY SALLITSILAT TA'SIRIDA HOSIL QILINGAN EKSPERIMENTAL ME'DA YARALARIDA GLITSERRIZIN KISLOTASI MONOAMMONIY TUZINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mustanov T.B.

Alfraganus university, Toshkent sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14824310>

Dolzarbligi. Me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralari zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan birini tashkil etadi, aholi orasida tarqalishi esa 10% dan 20% gacha o'zgarib turadi. Sog'liqni saqlash tizimi ushbu kasallikni davolashda zamonaviy kimyoviy preparatlarning boy arsenaliga ega, ammo ko'p hollarda bular bemorlarning ehtiyojlariga to'liq javob bermasligi ortiqcha savollar tug'dirmoqda. Shu sababli, tabiatdan olingan va potentsial dori sifatida ko'rilayotgan o'simlik asosidagi preparatlar alohida qiziqish uyg'otadi.

Ishning maqsadi. Markaziy Osiyoda o'suvchi qizilmiya o'simligidan olingan glitserrizin kislotasi monoammoniy tuzining yaralarni davolashdagi ta'sirini chuqur tahlil qilishdir.

Usul va uslublar. Klinik amaliyotda glitserrizin kislotasi monoammoniy tuzi, ya'ni glitseram, so'nggi yillarda keng qo'llanilmoqda. Bu borada olib borilgan tajribalar oq kalamushlar ustida tashkil qilinib, glitseramning yaraga qarshi ta'sirini metilurasil preparati bilan taqqoslashga mo'ljallandi. Tajribalar Romanov L.M., Zinger L.V. va Kolle V.E. tomonidan ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan usulga asoslangan holda olib borilgan.

Natijalar. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi barcha hayvonlarda oshqozon yarasi mavjud bo'lib, ularning o'rtacha maydoni $13,9 \text{ mm}^2$ ga teng edi. Metilurasilning terapevtik samarasi esa ancha past bo'lib, yarali kalamushlar soni faqat 15% ga kamaydi, bu esa yaralarning maydoni $9,8 \text{ mm}^2$ gacha qisqarishi bilan izohlandi.

Glitseramni 50 mg/kg va 75 mg/kg dozalarida qo'llash natijasida yarali kalamushlar soni mos ravishda 35% va 50% ga kamaydi. Bu guruhlardagi kalamushlarda oshqozon shilliq qavatining yaralanish maydoni $5,6 \text{ mm}^2$ va $1,8 \text{ mm}^2$ ni tashkil etdi va nazoratdan farqli o'laroq, mos ravishda 59,7% va 87,1% ga pasaydi. Nazorat guruhidagi Pauls Indeksi esa 7,3 ga teng bo'lib, metiluratsil qo'llanganda u 43% ga kamaygan. Glitseramni 50 mg/kg va 75 mg/kg dozalarida esa bu ko'rsatkich mos ravishda 71% va 90% ga pasaygan.

Natijalarimizdan shuni xulosa qilish mumkinki, natriy sallitsilat ta'sirida hosil bo'lgan eksperimental oshqozon yaralarida glitseramni qo'llash metiluratsilga nisbatan hamma dozalar uchun samaraliroqdir va u metiluratsil bilan taqqoslaganda 3 baravar yaxshi natija ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, glitseram o'ziga xos yaraga qarshi ta'sirga ega ekanligi ko'rsatilgan bo'lib, bu xususiyati uni metiluratsil preparatidan ustun ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli, glitseramni yaraga qarshi dori sifatida foydalanish va tavsiya etish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa:

1. Eksperimental sharoitlarida yaratilgan oshqozon yarasida glitseramning ta'siri yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

2. Metiluratsilga nisbatan glitseramning 3 baravar samaraliroqligi, tibbiyot amaliyotida keng ko'lamda qiziqish tug'dirmoqda.

References:

1. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.1
2. Примова, М. М. (2023). ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(10), 549-551.
3. Примова, М. М. (2024). Место Лингвострановедения В Изучении Иностранного Языка. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 67-69.
4. Majlimovna, P. M., & Shukrullayevna, A. Z. (2024). YUNON-LOTIN DUBLETLARI VA YAKKA TERMINOELEMENTLAR. KLINIK TERMINLAR TUZILISHI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(2), 260-263.
5. Primova, M. (2024). INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS OF CHARACTER EXPRESSION IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Академические исследования в современной науке*, 3(5), 130-134.
6. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Using modern multimedia technologies in foreign language lessons. *Religación: Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-84.
7. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.
8. PRIMOVA, M. (2023). FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI.
9. Klara, A., & Munisa, P. (2019). Main features of the formation and development of the gerund in English. *Вопросы науки и образования*, (7 (53)), 79-81.
10. Majlimovna, P. M. (2023). Phraseologism as a Linguistic Phenomenon.
11. Primova, M. M., & Olmasbekov, A. K. (2023). LATIN VOCABULARY IN MODERN ENGLISH. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 239-241.